



TASAVVUFNING VUJUDGA KELISH TARIXI

Sadullayev Siroj Solexovich

*Buxoro davlat universiteti Islom tarixi va manbashunoslik
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf ilmi to'g'risida ma'lumotlar yoritiladi. Uning rivojlanish bosqichlari, tarixi o'rganiladi. Maqolada tasavvuf tarixi birma-bir yoritib berilgan,

Kalit so'zlar: tasavvuf, islom, hanbaliya, to'plam, davr, olim, ustoz, shayx, martaba, tabaqa, islom, shariat, hukm.

Jahon ilmiy-falsafiy merosi taraqqiyotida tasavvuf allomalarining ilmiy-irfoniy, falsafiy-axloqiy ta'limotlari, xususan, olam va odam munosabatlari, tabiat va jamiyat, insonning ijtimoiy mohiyatiga oid qarashlari doirasida fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, dunyo sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan mutasavviflar merosidagi insonparvarlik maqsadlariga yo'naltirilgan inson mohiyatiga doir ta'limotlarni tadqiq etish, insonning ezgulik va yovuzlikka moyilligi sabablarini ochib berish, tasavvufning gumanistik mohiyatini asoslash zarurati bugungi kunda ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma'noda, tasavvuf ta'limotidagi bag'rikenglik, tinchlik, adolat, ruhiy-ma'naviy uyg'unlik, o'zaro hamjihatlikka oid falsafiy-irfoniy g'oyalarni tadqiq qilish bugungi ilm-fanning zaruriy tadqiqot ob'ektiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda tasavvufiy merosdagi olam va odam, inson tabiati, shaxs ma'naviyati, insonparvarlik, ta'lim va tarbiyaga oid ta'limotlarni tadqiq etish, ularning zamon ruhiga mos g'oyalardan o'sib kelayotgan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Mamlakatimizda "jaholatga qarshi-ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi"¹. Shu jihatdan olganda, islom dinining insonparvarlik mohiyati targ'ibotida muhim o'rin tutgan tasavvuf ta'limoti ayniqsa, ilk Renessans va so'nggi Renessans davrida gumanistik tamoyillar asosida shakllangan irfoniy-falsafiy ta'limotlarning

¹Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari.-Toshkent: "O'zbekiston", 2020. -B.43.



insonparvarlik maqsadlarga yo'naltirilgan g'oyalarini har tomonlama ilmiy-nazariy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tasavvuf islomdan uzoq ta'limot yoki unga yot harakat sifatida o'zini ko'rsatgan emas. Tariqat va shariat o'rtasida o'zaro bog'liqlik uning aynan Chunki hanbaliya mazhabining asoschisi Ahmad b. Hanbal (vaf. 241/855 y.) IX asrda ilk tasavvuf nazariyotchilaridan al-Horis al-Muhosibiyga (vaf. 243/857 y.) qarshi juda keskin mavqe'ni egallagan bo'lsa, XII asrda esa hanbaliy 'Abdulqodir al-Jiloniy (vaf.562/1167 y.) qodiriya tariqatining muassisi bo'lgan². Tasavvuf biror bir mazhab yoki shayxning shaxsiy maslagi asosidagi g'oyalardan iborat ta'limot bo'lmagan. Professor I.Haqqulov ta'kidlaganidek, Tasavvuf tarixi juda uzoq, ayni paytda nihoyatda murakkab bir tarixdir. Hazrati Payg'ambar davrida barcha islom ilmlari mushtarak bo'lib, fiqh, kalom, tasavvuf deya ajratishlar bo'lmagan.

Qur'onda tasavvuf so'zi uchramasada u Qur'on va Sunnadan quvvat oladi. Muhammad Payg'ambar davrlarida ham bu tasavvuf deyarli qo'llanilmagan. Tasavvufning tub mohiyati, zuhd va taqvo bilan axloqni go'zallashtirish, ruhni sayqallashtirib, tafakkur kuch-quvvati bilan qalbni mosivodan xolos qilib komillikka erishishdir. Shu ma'noda tasavvufni xulq, qalb, hol ilmi ham desa bo'ladi. Uning tili ham "qush tili", "ko'ngil tili" deb ta'riflangan. Tasavvuf inson qalbini, uning botinini poklaydigan isloh qiladigan ta'limotdir. Uning g'oyasi insonni isloh qilish, qalbini yuksaltirish, Allohning rizoligiga erishtirishdan iborat bo'lib insonni "ikki dunyo saodati" ga yetishini ko'zlaydi.

Tasavvuf nafsni tarbiyalash, ruhni poklash, go'zal axloqqa yetishish tajribasi bilan insonni yuksak martabalarga ko'taradi. Shuningdek, boshqa mavjudotlardan butkul xoli bo'lgan "komil" lik sari undaydi. Shayx Suxravardiy fikriga ko'ra, tasavvufning avvali ilm, o'rtasi amal, oxiri ilohiy ishqdir. Ilm maqsadni kashfga yo'naltiradi, amal tolibga yordamchi bo'ladi, muhabbat insonni Allohga vosil etadi. Shuning uchun tasavvuf tariqatlari va uning ma'no olamiga alohida bir e'tibor lozim. Dunyoning foniyligini bilish va uni butga aylantirmaslik, o'tkinchi olam ish va tashvishlari deb mehr-muhabbat, shafqat va muruvvat talablaridan aslo chetlashmaslik muhim, bular islomiy asoslar bo'lib, tasavvuf taraqqiyoti uchun alohida ahamiyat kasb etgan. Insonni ulug'lash uning o'zligini anglashi va olamda barcha yaratilqlar ichida mukarrami ekanligini anglatish g'oyasi aynan shu qarashlar zamirida mujassam. Tasavvuf islom diniga begona yoki ilova qilingan bir narsa emas. Mashhur arab tasavvufshunosi Abul A'lo Afifiy tasavvufni "Islomdagi

² Nirsha V.M. Traditsii i novatsii v sufizme // Iz istorii sufizma: istochniki i sotsialnaya praktika. / Pod red. Xayrullaeva M.M. – T.: Fan, 1991. – B. 119.



ma'naviy inqilob" deb baholaydi. Uning ta'kidlashicha, tasavvuf, faylasuf, kalomchi va faqihlar qo'llagan quruq, yakrang tushunchalarga qarshi shiddatli bir inqilobdir. Tasavvuf islomga yangi bir ruh olib keltirgandi. Bu ruhni to'g'ri anglay bilgan kishi islomiy ta'lim-tarbiya ruhini bexato anglab bilganidek, noto'g'ri tushungan ham uni yangilish qabul qiladi. Demak, tasavvufning kelib chiqishini eski Yunondan, hind madaniyatidan yoxud fors hurriyatchiligidan izlash, g'ayriilmiy yo'lini tanlashdan boshqa narsa emas. Tasavvuf bir qancha murakkablik va ziddiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Uni to'g'ri anglash va imkon qadar undan foydalanish uchun tasavvufni alohida-alohida bir necha qismda tadqiq etish kerak. Ulardan birinchisi, so'fiylik tarixi. Umumiy tarzda bo'lsa hamki, bu tarixni bilmay turib, tasavvufning dunyoga kelish sabablari, shakllanish va taraqqiyot jarayonidagi qarama-qarshiliklar, ilk davr so'fiylik bilan, tariqatlar hamda vahdati vujud maydonga chiqqandan keyingi davr tasavvuf tamoyillari haqida ishonchli fikr-mulohazalarni ilgari surish qiyin.

Ikkinchisi, so'fiylik amaliyotini aks ettiradigan muassasa, ya'ni tariqat bilan qiziqish tushuniladi. Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, tariqat bir ta'lim-tarbiya tizimi sifatida allaqachon o'z hayotini yashab bo'lgan. Oldingi shakllarda uni qayta tiriltirishni hatto xayolga ham keltirib bo'lmaydi. Ammo undan axloqni poklash, ruh va ko'ngilni komillashtirish, ma'naviy hayotdagi muammolarni hal etishda foydalanish mumkin. Shuning bilan birga murid yo tolibning shayxi istak-irodasiga o'zini butunlay taslim qilish, azroq so'fiylari deya qoralangan so'fiylarga o'xshab rizq, tama ilinjida ko'chama-ko'cha izg'ib, eshikma-eshik tilanib yurish, mehnatkash xalqdan atayin o'zini chetga tortish, karomatfurushtlik qilish, raqsi samoga tushib o'zdan kechish, nainki bugun, kelajak uchun ham ahamiyatini butunlay yo'qotgan. Demak, tasavvufning nazariy tushunchalari, g'oyalari uning mazmuni g'oyaviy mohiyati muhim sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir shayx o'zining shaxsiy tajribasiga tayangan va uni yagona tariqat yoki tajriba sifatida e'tirof etmagan. Tariqatlarning xilma-xilligi ularning maqom va hol martabalaridagi darajalari ham turlicha bo'lganini ko'rsatadi. Biroq, maqsad bir Allohning vasliga erishish uning roziligini topishdan iborat.

Uchinchi qism bu – tasavvuf adabiyotidir. San'at, falsafa, musiqaga qaraganda ham tasavvufning badiiy adabiyot bilan aloqasi ancha chuqur va miqyoslidir. Biroq tasavvufiy fikr-qarash, qonun-qoida, ma'no, tushuncha va haqiqatlar targ'ib-tashviqiga safarbar etilgan adabiyot bilan, ya'ni zuhd adabiyoti, tariqat adabiyoti bilan, Sharq mumtoz adabiyotidan o'rin egallagan tasavvufiy "ramz, iste'ora" ayni bir narsa, ayni bir ijodiy hodisa emas. Agar masalaning xuddi shu jihati e'tiborga



olinmasa, istang, istamang, mumtoz adabiyotning badiiylik xususiyatlari tasavvurdan chetda qoladi. Tasavvuf badiiy tafakkurni rivojlantirdi, yangi g'oyalar bilan boyitdi. Adabiyotda yangi yo'nalishga asos bo'lib xizmat qildigan insonparvar g'oyalarni olib kirdi. Olam va odam munosabatlarining adabiy asarlarda aks etishi inson zotini yangi mavzularda bosh masalaga aylantirdi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ta'limoti va islom tasavvufi falsafasining manbalari asrlar davomida o'rganilib kelingan va bugungi kunda ham bunday ishlar davom etmoqda. Lekin tasavvuf ta'limotiga doir ko'plab qo'lyozmalar birqancha qo'lyozmalar institutlarida hali ham tadqiqotlar o'tkazilishini kutib yotibdi. Mamlakatimizda ham tasavvufiy-falsafiy g'oyalarning o'rganilishida ko'plab natijalarga erishilgan. Shunday bo'lsa-da, tasavvufiy g'oyalarning talqin qilinishida, undagi qarama-qarshiliklarning to'g'ri yoritilishida yangicha yondashuvga asoslangan tadqiqotlar ham zarurligi ma'lum bo'lmoqda. Movarounnahrdagi islom ilmlari doimiy tarzda xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ali Safiy. Rashohotu-aynil-hayot.-Toshkent: Abu Ali Ibn Sino, 2004. -536.b.
2. Abduxalimov B. Baytu-l-hikma va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati: IX-XI aniq va tabiiy fanlar.- Toshkent, Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2004-B.209-236.
3. Abu Bakr Kalobodiy. "at – Ta'arruf li-mazhabi ahli tasavvuf". Ahmad Shamsiddin Bayrut, 1992. 274.b.
4. Jomiy A. "Nafohot ul-uns-min-hazarat ul-quds" O'zRFA ShI qo'lyozmalari: inv. №. 4409.
5. Akimushkin O. Abu Said Mayxani./Islam Ensiklopedicheskiy slovar. M.: Nauka, 1991. S. 10-11.;